



SHO'FOKOR

SAMARQAND DAVLAT
TIBBIYOT UNIVERSITETI
NASHRI

SO'ZI

GAZETA 1938 YILDAN "MEDITSINA FANI UCHUN" NOMI BILAN CHIQA BOSHLAGAN



Hurmatli askar va serjantlar, ofitser va generallar!

Muhtaram Qurolli Kuchlarimiz faxriylari!
Qadrli yurtdoshlar!

Siz, azizlarni, ko'pmillatli butun xalqimizni O'zbekiston Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilar kuni bilan samimiy muborakbod etaman.

Barchamiz uchun shon-sharaf timsoliga aylangan mana shu qutlug' ayyomda o'z hayatini Vatan himoyasidek ulug' ishga bag'ishlagan botir va dovyurak o'g'lolarimizni, muhtaram faxriylarimizni tabriklab, ularning sha'niga eng ezgu tilaklarimizni izhoretamiz. Sizlarning azmu shijoatingiz, el-yurtga sadoqatingiz tufayli xalqimizning tinch va osoyishta hayoti ta'minlanmoqda, mamlakatimizning mudofaa salohiyati mustahkamlanmoqda, milliy armiyamizning jangovar qobiliyatini yuksalmoqda.

Yurtimiz bo'ylab jasorat madhiyalari yangrayotgan bugungi ulug' kunlarda Vatan oldidagi burchini ado etish chog'ida halok bo'lgan qahramon harbiyalarimizning so'nmas xotirasi oldida barchamiz hurmat bajo keltiramiz. Fursatdan foydalanib, mard va bahodir yurt posbonlarini tarbiyalagan barcha ota-onalarga, harbiy xizmat davomida Vatan himoyachilariga tog'dek tayanch bo'lib kelayotgan ularning oila a'zolariga chin qalbimidan minnatdorlik bildiraman.

Aziz do'stlar!

Keyingi yillarda olib borayotgan keng ko'lamlı islohotlarimiz tufayli Qurolli

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLI KUCHLARI TASHKIL ETILGANINING 33 YILLIGI VA VATAN HIMOYACHILARI KUNI MUNOSABATI BILAN BAYRAM TABRIGI

Kuchlarimiz mamlakatimiz mustaqilligi, chegaralarimiz daxlsizligi, xalqimizning tinch va osoyishta hayatini ta'minlashning chinakam kafolatiga aylanib bormoqda. Barcha qo'shin turlari zamonaviy qurolyarog' va texnika bilan ta'minlanmoqda. Harbiy xizmatchilarning jangovar va ma'naviy tayyorgarligi uzlusiz oshib bormoqda. Milliy armiyamiz ular uchun, yoshlarimiz uchun mardlik va shonsharaf maktabiga aylanmoqda. Eng muhim, xalq bilan armiya tobora yaqin bo'lib borayotgani harbiy soha rivojiga yangicha kuch va sifat bag'ishlamoqda.

Bugungi kunda navqiron avlodimiz o'tasida harbiy xizmatga qiziqish kuchayib, minglab yigit-qizlarimiz Vatan himoyasiga dadil bel bog'layotgani barchamizni cheksiz quvontiradi. Biz ana shunday o'tyurak farzandlarimiz timsolida bo'lg'usi qahramonlarimiz, Qurolli Kuchlarimizning bo'lajak ofitser va generallari, mohir qo'mondonlarni ko'ramiz.

Ayni vaqtida barchamiz yaxshi anglaymizki, hozirgi vaqtida, dunyo miqyosida turli xavf-xatarlar, qurolli to'qnashuvlar tobora avj olib borayotgan o'ta murakkab vaziyatda Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyatini, harbiy xizmatchilarning jismoniy va ma'naviy shayligini oshirish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu munosabat bilan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi asosida bu borada boshtagan ishlarimizni mutlaqo yangi sifat bosqichiga ko'tarishimiz shart. Xususan, Qurolli Kuchlarimizni yangi, modernizatsiya qilingan o't ochish tizimlari va texnika bilan ta'minlashni harbiy harakatlar teatri xususiyatlarini, qo'shinlarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalişlarini hisobga olgan holda davom ettiramiz.

Harbiy xizmatchilarning intellektual salohiyatini yuksaltirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash,

maktablarda boshtag'ich harbiy ta'lif sifatini oshirish, o'quvchi yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash ishlarini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratamiz.

Askar va ofitserlarning professional mahorati, harbiy bilim yurtlarida ta'litarbiya samaradorligini oshirish, malakali harbiy kadrlar zaxirasini yaratish doimo ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi.

Harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari, Qurolli Kuchlarimiz faxriylarini ijtimoiy himoya qilish, har tomonlama qo'llab-quvvatlash bundan buyon ham diqqatimiz markazida bo'ladi.

Ana shu muhim vazifalarni bajarishda, hech shubhasiz, harbiy-ma'muriy sektorlar, davlat va jamoat tashkilotlari hamda keng jamoatchilikning faol ishtiropi g'oyat muhim ahamiyatga ega. Chunki, xalq bilan muloqot va maslahat asosida, uning ishtiropida amalga oshirilgan ish albatta qudratli ijobiy kuchga ega bo'ladi.

Umuman, bugungi kunda barchamiz – qaysi soha yoki tarmoqda, qanday lavozimda ishlamaylik, Vatan himoyachisi bo'lishimiz zarur. Bu talabni davrning o'zi oldimizga qat'iy vazifa qilib qo'ymoqda va xalqimiz ham bizdan aynan shuni kutmoqda.

Qadrli Vatan himoyachilar!

Ona yurt qalqonlari, tinchlik posbonlari sharaflanadigan mana shu quvonchli kunda siz, azizlarni shonli bayramingiz bilan yana bir bor chin dildan qutlayman.

Barchangizga muqaddas qasamyodingizga sodiq qolib, xizmat burchingizni yuksak darajada ado etishda mustahkam sog'liq, ulkan muvaffaqiyatlar, oilaviy baxt, xonardonlaringizga tinchlik, fayzu baraka tilayman.

Jonajon Vatanimiz himoyasi yo'lida hech qachon tolmang, yutuq va zafarlar doimo sizlarga yor bo'lsin!

**Shavkat Mirziyoyev,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti,
Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni**

*President Shavkat Mirziyoyev
22-yanvar kuni oliy ta'lif va ilm-fan
sohasidagi ustuvor vazifalarga oid
taqdimot bilan tanishdi.*

OLIY TA'LIM VA ILM-FAN SOHASIDAGI USTUVOR VAZIFALAR KO'RIB CHIQILDI

Mamlakatimiz taraqqiyotining tayanchi sifatida bu yo'naliishlarga katta e'tibor qaratilmoqda. Yangi olygochlardan ochilib, qamrov ancha kengaydi. Ta'lif jarayonlari sifat jihatidan yaxshilanmoqda. O'tgan yili bakalavriat yo'naliishlari maqbullashtirilib, 1 ming 200 dan ortiq ta'lif dasturlari xorijiy andozalarga moslashtirildi. Jumladan, bitiruvchilarga malaka talabi to'liq yangilandi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, atrof-muhit muhandisligi, biotizimlar muhandisligi kabi zamонавиyo'naliishlar ochildi.

Bu yil ham qator muhim vazifalar belgilangan. Xususan, yana mingdan ortiq ta'lif dasturlari "TOP-300" universitet dasturlari asosida takomillashtiriladi. 45 ta ta'lif dasturlari xalqaro akkreditatsiyadan o'tkaziladi. Olygochlarda Registrar ofisi xizmatlari bilan talabalar to'liq qamrab olinadi. Dual ta'limga yana 50 ming talaba jalb qilinadi. Oliy ta'limga ilmiy salohiyatni 55 foizga chiqarish, xorijda 5 ming nafar pedagog malakasini oshirish rejalashtirilgan. Ilg'or muhandislik maktablarini 25 taga yetkazib, sanoat korxonalar bilan loyihamalar qiyomatini 10 barobar oshirish maqsad qilingan.

Taqdimotda mutasaddilar shu borada amalga oshiriladigan ishlar haqida axborot berdi.

Ma'lumki, oliy ta'limga qabul jarayonida "avval test, keyin tanlov" tamoyiliga o'tildi. Davlat granti talabalarning iqtidoriga qarab ajratiladigan bo'ldi. Moliyaviy mustaqillik berilgan 40 ta olygohda Registrar ofisi tashkil qilindi. Natijada dekanat va

bo'limlarda shtatlar 20 foizga qisqarib, 30 ta xizmat turi raqamlashdi. Ushbu tajribadan kelib chiqib, shunday ofislarni boshqa oliy o'quv yurtlarida ham ochish, ta'lif va ilm-fan xizmatlarini qamrab olgan yagona raqamli tizim joriy etish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Amaliyot bilan uyg'unlikni kuchaytirish maqsadida dual ta'lif yo'lga qo'yilmoqda. Hozirda 15 ming talaba 957 ta korxonaga biriktirilgan. Lekin korxonalarda bunga qiziqish kam. Shu bois dual ta'limga ishtirot etayotgan korxonalarini rag'batlantirish bo'yicha takliflar bildirildi.

2024-yil 20-iyunda bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida davlatimiz rahbari har bir hududda texnika olygohi va ilg'or muhandislik maktablarini tashkil qilish vazifasini qo'ygan edi. Hozirgacha Termiz, Andijon va Qarshida texnika universitetlari tashkil bo'ldi. Shuningdek, 8 ta muhandislik maktabi ochildi.

Yig'ilishda Nukus, Buxoro, Farg'ona va Namangan texnika universitetlarini tashkil etish loyihamari taqdimot qilindi. Unga ko'ra, yangi yo'naliishlar ochilib, xorijiy dasturlar tatbiq qilinadi, talabalarning ilmiy-innovatsion jarayonlarda ishtiroti kengaytiriladi, olygochlarga sanoat hamkorlari biriktiriladi. Umuman, bu yo'naliishdagi 35 ta muassasani yiriklashtirish hisobiga, 22 ta texnika universiteti tashkil qilinadi. Shu yil oxirigacha yana 17 ta muhandislik maktabi ochiladi.

So'nggi yillarda oliy o'quv yurtlarida ilmiy salohiyat 41 foizdan 45 foizga



oshgan. Lekin, aksariyat ilmiy tadqiqotlar sanoat va ishlab chiqarishdagi zamонавиyo'naliishlari tendensiyalarni qamrab olmayapti. Shu bois doktorantura kvotasini taqsimlashda iqtisodiyotning drayver sohalariga ahamiyat qaratish, ilmiy daraja va unvonlar olish tartibini takomillashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Pedagoglar kasbiy mahoratini oshirishni yangi bosqichga olib chiqish zarurligi ta'kidlandi.

Yoshlar tarbiyasida axloq va sport ham muhim. Bu borada "Besh tashabbus", "Ma'rifat ulashib", "Talabalar sport ligasi", "Zakovat" kabi harakatlar yo'lga qo'yilgan. Bunday ma'naviy-ma'rifiy, sport va intellektual loyihamalar bilan talabalarni to'liq qamrab olish, yoshlarda vatanparvarlik ruhini kuchaytirish tadbirlari yuzasidan axborot berildi.

Manba: president.uz


TIBBIYOT MUASSASALARINI JIHOZLASH MASALALARI KO'RIB CHIQILDI

*Davlatimiz rahbari tibbiyot
muassasalarini jihozlash
va xizmatlar sifatini oshirishga doir
taqliflar taqdimoti bilan tanishdi.*

Aholi salomatligini mustahkamlash va davolash sifatini oshirish maqsadida shifoxonalar zamonaviy uskunalar bilan ta'minlanmoqda. Buning uchun byudjetdan har yili kamida 100 milliard so'm ajratilayapti. Shuningdek, o'tgan yilning o'zida tibbiyotni yuqori texnologik uskunalar bilan ta'minlash uchun 200 million dollar xorijiy investitsiya, 94 million dollar grant jalb qilindi.

Natijada oldin faqat respublika muassasalarida bo'lgan kompyuter tomografi, magnit rezonansli tomograf, angiograflar hozir viloyatlarda, o'nlab tumanlarda ham bor. Bu ixtisoslashgan xizmat aholiga yanada yaqinlashdi, degani. Joriy yil ushbu maqsadlarga davlat hisobidan 200 milliard so'm ajratilgan. Shuningdek, tibbiyotga 370 million dollar xorijiy investitsiya kiritilishi mo'ljallangan.

Taqdimotda tibbiyot muassasalarini jihozlash bo'yicha rejalar bayon etildi. Xususan, Osiyo taraqqiyot



bankining 100 million dollar mablag'i evaziga respublikadagi 230 ta tug'ruq muassasasi uchun 45 turdag'i 21 mingta tibbiy uskuna va 6 ta reanimobil xarid qilinadi.

Germanianing KfW bankining 30 million yevro mablag'i hisobiga Qoraqalpog'iston va Xorazmdagi 19 tadan tibbiyot muassasasi yurak-qon tomir kasalliklarini davolovchi 862 ta

uskuna bilan jihozlanadi. Yana shu bankning 13,5 million yevro granti orqali Termiz shahrida o'quv markazi, talabalar turar joyi quriladi. Bu markaz zamонавиyo'naliish o'quv-simulyatsiya va axborot texnologiyalari bilan jihozlanadi.

Davlatimiz rahbari jihozlash bu masalaning faqat bir qismi ekani, ularda ishlay oladigan malakali mutaxassislarini hozirdan tayyorlash kerakligini ta'kidladi. Tegishli muassasalardagi shifokor va hamshiralarni qo'shimcha o'qitish vazifasi qo'yildi. Uskunlardan samarali foydalanish ham muhim. Masalan, viloyatlarda angiograflar yuklamasi o'rtaча 34 foiz. Tomograf bo'yicha holat ham har xil. Shu bois, hokimliklar bilan birga, davlat shifoxonalardagi yuqori texnologik uskunlardan samarali foydalanish bo'yicha autsorsing va xususiy sheriklik loyihamalarini yo'lga qo'yilishi belgilandi.

Manba: president.uz

Universitet ilmiy kengashining yil sarhisobiga bag'ishlangan yig'ilishi bo'lib o'tdi

25-dekabr kuni universitetda joriy yilning so'nggi ilmiy kengashi bo'lib o'tdi. Ilmiy kengashni universitet rektori Jasur Rizayev kirish so'zi bilan ochib berdi hamda kirib kelgan yangi 2025-yil bilan barchani tabriklab, ilmiy, shaxsiy va ish faoliyatida barchaga omad tiladi.

Ilmiy kengash yil sarhisobi, yil davomida amalga oshirilgan ishlar, erishilgan yutuqlar va yaratilgan yangi imkoniyatlar muhokamasi bilan boshlandi. Universitetda 2024-yil davomida ilmiy, amaliy, o'quv va tashkiliy masalalarda ko'plab yutuqlarga erishildi. Jumladan, universitet ko'p tarmoqli klinikasida yangi Xirurgiya markazi ish boshladi, Samarcand davlat tibbiyot universiteti va Doktor M klinikasi hamkorligida Samarcanda birinchi EKO IKSI markazi tashkil etildi.

Universitetda amalga oshirilgan ishlar samarasini o'laroq, oliy ta'limga muassasalarining nufuzli xalqaro reytingi hisoblangan Times Higher Education e'lon qilgan reytingda yuqorilab bormoqda. Eng quvonarlisi joriy yilda universitet ta'limga yo'naliishlarining Tibbiy Ta'lim Butunjahon Federatsiyasi (World Federation of Medical Education – WFME), Oliy ta'limda Sifatni Ta'minlash Evropa Assotsiatsiyasi (European Association for Quality Assurance in Higher Education – ENQA) hamda Osiyo Tinch Okeani hududi Sifat Registri (Asia Pacific Quality Registr – APQR) standartlariga muvofiqligiga yuqori baho berilib, "Davolash ishi" (o'zbek, rus va ingliz tillarida) hamda "Stomatologiya" ta'limga dasturlari WFME Portal bazaviy tibbiy ta'limga akkreditatsiya qilingan ta'limga dasturlari portalida joylashtirildi. Ta'kidlash joizki, xalqaro akkreditatsiyadan o'tganlik to'g'risidagi guvohnoma ta'limga xizmatlarning sifati, ularning xalqaro talablarga muvofiqligi kafolatlarini tasdiqlaydi va ushbu dasturlar bo'yicha oliy ta'limga to'g'risidagi diplom butun dunyoda tan olinadi. Bu esa universitet bitiruvchilarini uchun xalqaro miqyosda katta imkoniyatlarni ochadi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Ta'limga sohasida talabalarga bir qator yengilliklar yangi imkoniyatlar yaratildi. Bu esa talabalarning nafaqat viloyat va Respublika, balki, xalqaro miqyosdagi tanlov va musobaqalarda ishtiroy etib, faxli o'rirlarni qo'lga kiritishiga zamin yaratdi. Shuningdek, yil davomida Samarcand davlat tibbiyot universiteti ko'plab Respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar, olimpiada va talabalar yozgi muktablariga mezbonlik qildi.

Universitet xalqaro hamkorlik borasida ham katta qadam bilan yurish qilib, yangi hamkorlik aloqalarini o'rnatdi. Xususan 2024-yilda Samarcand davlat



tibbiyot universiteti jahoning bir qator mamlakatlarining ta'limga muassasalarini va klinik bazalari bilan hamkorlikda ko'plab memorandumlarni imzoladi. Xalqaro hamkorlik doirasida qo'shma ta'limga dasturlarini amalga oshirishda ham katta yutuqlarga erishildi.

SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA KUTILAYOTGAN MUHIM YANGILIKLAR

2025 yilda sog'lioni saqlash tizimi yangilanishlarga boy bo'lishi kutilmoqda. SSV matbuot xizmatining ma'lum qilishicha, sohani transformatsiya qilish jarayonida quyidagi yo'naliishlarga alohida e'tibor qaratilishi rejalashtirilgan.

Avvalo, kasalliklar profilaktikasi va erta tashxis bo'yicha takomillashtirilgan dasturlar amalga oshiriladi, yangi turdag'i ommaviy skrining tekshiruvlari yo'lga qo'yildi.

Tuman (shahar) shifoxonalarida yangi 220 ta diagnostika va 488 ta davolash usuli tatbiq etildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy, Samarcand, Buxoro, Xorazm va Qashqadaryo viloyatlarda davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlari joriy qilinadi. 2026 yilda esa ushbu yangilik Surxondaryo, Farg'onha, Andijon, Toshkent, Namangan hamda Jizzax viloyatlarda tatbiq qilinadi.

Ushbu hududlarda davlat tomonidan aholiga bepul ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar va dori vositalari kafolatlangan paketi joriy etiladi, eng ko'p uchraydigan kasalliklar bo'yicha dori vositalari elektron retsept asosida dorixonalar orqali bepul beriladi. Tibbiyotda natijaga asoslangan moliyalashtirish usullari tatbiq etiladi. Kafolatlangan tibbiy xizmatlar byudjet hisobidan amalga oshiriladi, aholidan qo'shimcha to'lov undirilmaydi.

Shuningdek, barcha darajadagi tibbiy ta'limga tizimini to'liq transformatsiya qilish, tibbiyot oliy o'quv yurtlari klinikalarini faoliyatini takomillashtirish orqali "ilm-fan-ta'lim-malaka oshirish-amaliyot" integratsiyasini ta'minlash, bilim va kasbiy malakani baholash tizimini xalqaro standartlar darajasida tashkil qilish



Samarqand davlat tibbiyot universiteti professor-o'qituvchilari va tibbiy xodimlari yil davomida xorijiy mamlakatlarda akademik mobillik doirasida malaka oshirdilar. Amaliy tibbiyotda ham universitetda ko'plab yutuqlarga erishildi.

O'tkazilgan ilmiy kengash doirasida bir qator ilmiy darajalarni qo'lga kiritgan o'qituvchilarga attestat va diplomlar topshirildi. Shuningdek, tibbiyot xodimlari kuni munosabati bilan universitet professor-o'qituvchilari o'rtaida o'tkazilgan tanlovida nominatsiyalar bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritgan xodimlarga maxsus diplom va statuetkalar taqdim etildi.



bo'yicha islohotlar boshlanadi.

O'ttiz ming nafar mutaxassis Toshkentdagi tibbiyot markazlarida, ming nafari xorijagi nufuzli klinikalarda o'z kasbiy mahoratini oshiradi. Turkiyalik mutaxassislar tomonidan birlamchi bo'g'in tibbiyot xodimlарining malaka oshirish dasturi takomillashtiriladi.

2025 yilda yana 7 ta ixtisoslashtirilgan markaz va 2 ta oliy ta'limga muassasasi xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazilishi ko'zda tutilgan. Shuningdek, 30 ta sanitariya qoidalari va me'yorlari yangilanadi. Yuqori texnologik jarrohlik yordami ko'rsatish sifatini yanada oshirish maqsadida ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari tomonidan tegishli tuman (shahar)lar namunaviy hamda ilg'or hududlarga aylantiriladi.

2025 yilda sog'lioni saqlash sohasiga 41 trillion so'm ajratilishi ko'zda tutilgan. Buning hisobidan yangi shifoxonalar tashkil etish va jihozlash, mavjud quvvatlarni kengaytirish, tibbiy ko'rik qamrovini kengaytirish rejalashtirilgan.

Manba: O'ZA

UNIVERSITET TALABALARI NOMDOR DAVLAT STIPENDIYALARI SOHIBIGA AYLANDILARI!

Samarqand davlat tibbiyot universitetining bir qator talabalarini bakalavriat yo'naliishi nomdor davlat stipendiyalarini qo'liga kiritdilar:



**Abdukahorova
Ruxshona
Nodirovna** - 1-son Davolash fakulteti 6-bosqich talabasi – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasi sohibasi.



**Subxonova
Zarnigor
Sultonbek qizi** - Pediatriya fakulteti 5-bosqich talabasi – Islom Karimov davlat stipendiyasi sohibasi.




**Saidova Diyora
Otobek qizi** - Stomatologiya fakulteti 5-bosqich talabasi – Ibn Sino davlat stipendiyasi sohibasi.



**Amirova
Shoxidabonu
Abduqodirovna** - Tibbiy pedagogika fakulteti 6-bosqich talabasi – Ibn Sino davlat stipendiyasi sohibasi.



**Shamsiddinova
Madinabonu
Shuxrat qizi** - Tibbiy pedagogika fakulteti 6-bosqich talabasi – Ibn Sino davlat stipendiyasi sohibasi.



**Sa'dullayeva
Shamsiyabonu
Muxiddin qizi** - 2-son Davolash fakulteti 6-bosqich talabasi – Ibn Sino davlat stipendiyasi sohibasi.



BAYRAM ARAFASIDA YOSHI ULUG' USTOZLAR HOLIDAN XABAR OLINDI

Rektor Jasur Rizayev tashabbusi va boshchiligidagi universitetda ko'p yillardan beri fidoiylik bilan mehnat qilib kelayotgan professor-o'qituvchilar xonadonlariga tashrif buyurilib, ularning holidan xabar olindi.

Bir piyola choy ustida iliq suhabat qurilib, kirib kelayotgan yangi yil bilan tabriklashdi.



UNIVERSITET XODIMLARI BOLAJONLAR DAVRASIDA

Universitetning Tibbiy reabilitatsiya, sport tibbiyoti va xalq tabobati kafedrasi hamda Yoshlar ittifoqi SamDTU boshlang'ich tashkiloti fakultet koordinatori tashabbusi bilan viloyat sil kasalliklar shifoxonasidagi bolajonlar xolidan xabar olindi.

Ular uchun bayramona dastur tashkil etilib, yangi yil sovg'alari ulashildi.



SHIFOKOR SO`ZI UNIVERSITET «QALQON»LARI E`TIROF ETILDI!

14-yanvar kuni universitet «Qalqon» jamoatchilik guruhi vakillari bilan uchrashuv o'tkazildi.

Uchrashuvda Yoshlar ittifoqi SamDTU boshlang'ich tashkiloti yetakchisi Sardor Ochilov, universitet profilaktika inspektori Otajon Eshmuratov ishtirok etib, guruh vakillarini O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi hamda 14-yanvar - Vatan himoyachilar kuni bayrami bilan tabrikladilar. Uchrashuv davomida bajarilgan ishlar tahlil qilinib, kelgusidagi rejalar muhokama etildi.

Uchrashuv yakunida «Qalqon» jamoatchilik guruhi vakillariga universitet rektori Jasur Rizayevning tashakkurnomasi topshirildi.

Ma'lumot uchun: «Qalqon» jamoatchilik guruhi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Yoshlar siyosati va sport vazirligi tomonidan 2023-yil 28-avgust kuni tasdiqlangan "Oliy ta'lif muassasalarida "Qalqon" jamoatchilik guruhi tashkil etish to'g'risida"gi 30-q/q-son, 26-son, 40-son, 26-son va 26-q/q-son qo'shma qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, talabalarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, jamoat tartibini saqlashga ko'maklashish, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish, universitetda ijtimoiy-ma'naviy muhitni barqarorlashtirishga ko'maklashish maqsadida tashkil etilgan.



VATAN HIMOYACHILARI KUNIGA BAG'ISHLAB TADBIR TASHKIL ETILDI

Tibbiy profilaktika, jamoat salomatligi va tibbiy biologiya fakultetiga qarashli Gigiyena kafedrasida Vatan himoyachilar kuni bag'ishlab "Yangi O'zbekiston Armiysi – Mamlakat Tayanchi, Xalqimiz Faxri!" deb nomlangan bayram tadbiri tashkil etildi.

Tadbirda fakultetning ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha dekan o'rinnbosari Guliston Shomurodova, podpolkovnik Abdushaxidov Shavkat Shuxratillayevich, serjant Azimurodov Sunnatillo Nomozovich, Samarqand shahar Sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi va jamoat salomatligi boshqarmasi xodimlari ishtirok etdilar.

Tadbir davomida milliy armiyamiz va uning kuch qudrati haqida suhbat o'tkazildi. Talabalar tomonidan namoyish etilgan chiqishlar tadbirning bayramona va ko'tarinki kayfiyatda o'tishini ta'minladi.

Faoliyat

5

14-YANVAR VATAN HIMOYACHILARI KUNI

Vatan himoyasi eng sharaflı, faxrli kasbdır! O'zbekiston Respublikası qurolli kuchları — O'zbekiston Respublikası milliy manfaatlari, suvereniteti, hududiy yaxlitligi hamda aholining tinch hayotini himoya qilish uchun davlatimiz tomonidan tashkil etilgan.

Har yili yurtimizda 14-yanvar "Vatan himoyachilar kuni" sifatida keng nishonlanadi. Bu yil O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari tashkil etilganiga 33 yil to'ldi.

Yurtimizning muhtaram posbonlari! Barchangizni 14-Yanvar — «Vatan himoyachilar kuni» bilan muborakboz etamiz! Vatanimiz sarhadlarini qo'riqlash, tinchligini saqlash har bir yigitning vatani oldidagi muqaddas burchidir. Vatanimizning munosib o'g'onlari, barchangizga mustahkam sog'lik va metin iroda tilab qolamiz!



HARBIY VATANPARVARLIK TADBIRLARI DOIRASIDA "ZAKOVAT" O'YINI O'TKAZILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilar kuni bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni yuqori saviyada o'tkazish to'g'risida"gi 2024-yil 12-dekabrdagi farmoyishi bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilar kuni bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish dasturi doirasida talabalar o'tasida harbiy-vatanparvarlik mavzusida "Zakovat" intellektual o'yini o'tkazildi.

O'zbekiston Yoshlar ittifoqi SamDTU boshlang'ich tashkiloti, universitet 2-bo'limi hamda «Qalqon» jamoatchilik guruhi bilan hamkorlikda tashkil etilgan intellektual o'yinda talabalar faol ishtirok etdilar. O'yin yakunida g'olib va sovindor jamoalarga diplom hamda esdalik sovg'alarini topshirildi.





"QON TOPSHIR – HAYOT IN'OM ET" XAYRIYA AKSIYASI BO'LIB O'TDI

Inson organizmidagi eng muhim hayotiy omil hisoblangan qon zarur ozuqa va kislorodlarni tashish, tartibga solish hamda inson sog'ligini tiklashda asosiy rol o'yaydi. Baxtsiz hodisalar va turli kasalliklar tufayli qon yo'qotish natijasida qon quyish zarurati paydo bo'ladi hamda donorlarga ehtiyoj tug'iladi.

Donorlikni targ'ib qilish va insonlar hayotini saqlab qolishga hissa qo'shish maqsadida 17-yanvar kuni "Qon topshir – hayot in'om et" xayriya aksiyasi tashkil etildi. Aksiya doirasida Samarqand davlat tibbiyot universiteti xodimlari ham "Men donorman" shiori ostida faol ishtirok etib, savobli ishga o'z hissalarini qo'shdilar. Samarqand viloyati Qon quyish markazida universitet xodimlari va talabalaridan iborat ko'ngillilar jamoasi qon topshirdilar.

Mazkur aksiyada doimiy tashabbus ko'rsatib kelayotgan universitet jamoasi va faol xodimlariga tashakkur bildirildi. Qon donorligiga bo'lgan talabning yuqoriligini inobatga olib, barcha ko'ngillilarni mazkur xayriya aksiyada faol ishtirok etishga chorlab qolamiz!



SAMDTU KO'P TARMOQLI KLINIKASIDA BRAXIOTSEFAL QON TOMIRLARIDA KLASSIK KAROTID ENDARTEREKTONIYA OPERATSIYASI MUVAFFAQIYATLI O'TKAZILDI

Samarqand davlat tibbiyot universiteti klinik bazasida o'ng uyqu arteriyasida yuqori texnologiyali operatsiya - klassik karotid endarterektoniya muvaffaqiyatlari amalga oshirildi.

O'ng uyqu arteriyasining aterosklerotik stenozi tashxisi qo'yilgan 69 yoshli bemor, kompleks tekshiruvdan o'tkazilib, bosh miyaning qon bilan ta'minlanishini yaxshilash va insult xavfini oldini olish maqsadida klassik karotid endarterektoniya amaliyoti bajarildi. Jarrohlik amaliyoti zamonaviy jarrohlik texnikasi va jihozlaridan foydalangan holda bajarildi, bu esa yuqori darajadagi xavfsizlikni ta'minlab, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asoratlarni kamaytirishga imkon beradi.

Ushbu amaliyot jarrohlik angionevrologiyasida zamonaviy texnologiyalarning muvaffaqiyati qo'llanilishiga namuna bo'libgina qolmay, Samarqand davlat tibbiyot universitetining ta'lim va ilmiy dasturlari doirasida uyqu arteriyalari kasalliklarini davolash va oldini olishning yangi usullarini ishlab chiqishda muhim bosqich vazifasini o'taydi.



«MUSTAHKAM VA BARQAROR OILA – BARQAROR JAMIYAT KAFOLATI»

Universitet xotin-qizlar kengashi tomonidan «Mustahkam va sog'lom oila - Barqaror jamiyat kafolati» mavzusida oilali talaba kelinlar va qaynonalar ishtirokida targ'ibot tadbiri o'tkazildi.

Tadbirda kengash faollari, namunali, tajribali qaynona va kelinlar tomonidan oilaning muqaddas va ulug'ligi, oila jamiyatning boshlang'ich bo'g'ini, mehr hamda insoniy tuyg'ular, tarbiya maskani, oilalarning mustahkamligi, sog'lomligi bu jamiyatimiz barqarorligi kafolati ekanligi to'g'risida batatsil to'xtalib o'tdilar.

Oilada har bir a'zoning o'rni, vazifasi, qaynona-kelin munosabatlari, o'zaro hurmat, sadoqat, sabr, shukronalik tuyg'ulari, shuningdek, ba'zida uchrayotgan salbiy, noxush holatlar to'g'risida tushunchalar berilib, savol-javoblar orqali fikr va mulohazalar bildirildi.



XALQARO TA'LIM FAKULTETI BITIRUVCHILARI UCHUN YAKUNIY DAVLAT IMTIHONLARI BO'LIB O'TDI

Universitet Xalqaro ta'lim fakultetining 75 nafar bitiruvchi bosqich talabalari uchun Yakuniy davlat attestatsiyasining ikkinchi bosqich imtihonlari OSKE shaklda o'tkazildi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi bosh raisi Otorinolaringologiya, Bosh va bo'yin kasalliklari Respublika iqtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy markazi direktori, ilmiy ishlar bo'yicha o'rinosari ttd., dotsent Ulug'bek Vohidov, universitet O'quv ishlar bo'yicha prorektori Nargiza Yarmuxamedova, O'quv bo'limi boshlig'i Gulchehra Tastanova hamda fakultet dekani Sobirjon Mamaradjabovlarning bevosita ishtirokida tashkil etilgan sinovlarda talabalar o'z bilim va ko'nikmalarini nazari va amaliy tarzda namoyish etdilar.

Хурматни Савархонг давлат тиббият университетине разборларнинг ба
ҳодими гаричининг буруни кунда олимиюн ривожи ва шарори
малакати тиббийат наутиярига таъсирлашада эршидотсан
унаш ютуғари таҳсилат мөмчид.

Чарбай олимийада унаш муваффақиятни ташаббуси.
Университет разборларини ва бора ҳодими гаричини келинисе
шарорига ривожи ва ишмий разборларни ташаббуси.

24.01.2025

Хурматни Савархонг Медицинният Университетини
Олий таҳсилати, олий ба инвалидларни
бадиуларни бош мумкансиз А.Мамадшов 24.01.2025.

UNIVERSITET TARIXI MUZEYIDAGI TILAKLAR KITOBIDAN

Нурийини! Савархонг Медицинният Университетини
гулбеканиниң гендерни!



Сиздеги чарбай шариф шароитларни маддас мөнбатни.
Гулбеканинг ғулбеканинг нор бараси. Ашт қадимларниң
нор бараси. Гулбеканинг зерагиз гене тажиғати яшарнега санкоре!
Сиздеги шариф шароитларниң чарбай авори тажиғати оварош, ахтар гармони
чарбай мадасарларниң санкоре болалош жеми шештаси.

Маркази:
Мофат Романо амандар
Жарис таъсисати Медицинният Университетини
мадасарларниң.

20.01.2025 йили. 24.01

TO`RT TABIB

Tabiblarning ulug'i Ibn Sino kundardan birida qattiq og'rib, ko'rpa-to'shak qilib yotib olibdi. Ibn Sinoning shogirdlari, eng yaqin do'st-birodarlarini yig'ilishibdi. Ular yaxshi so'z aytilib, ulug' tabibning ko'nglini ko'tarishga, kayfiyatini yaxshilashga harakat qilishsa, shogirdlari uni dori-darmonlar bilan davolashga kirishibdilar.

O'limi yaqinligini sezgan Ibn Sino shogirdlariga shunday debdi:

— Ey, shogirdlarim, mening kunim bitgan ko'rindi. Shu boisdan meni davolayman, deb behudaga harakat qilmanglar. Vafot etsam, yig'i-sig'i, olov qilib o'tirmanglar. Faqat haqimga duo qilib, onda sonda qabrimni ziyorat qilsanglar bas. Va yana, ustoz olamdan o'tdi, endi tabobat oqsaydi, deb ham qayg'urmanglar. O'rnimga beshta zo'r tabibni qoldirib ketmoqdaman. Shularning maslahatlariiga doimo amal qilinglar, boshqalarni ham shunga da'vat etinglar, — debdi. Shogirdlardan biri:



— Ustoz, siz aytgan tabiblar kimlar ekan? — deb so'rabi.

Shunda Ibn Sino:

— Men qoldirib ketayotgan zo'r tabiblarimning biri — tozalik, ikkinchisi — parhez, uchinchisi — badan tarbiyadir. Va qolgan ikkisi mijoz va kayfiyat hisoblanadi. Doimo pokiza, ozoda bo'lislilik, duch kelgan ovqatni yeya bermaslik, apil-tapil ovqatlanmaslik, parhez va me'yorni bilishlik, ichkilikka ruju qo'ymaslik, badan a'zolarini harakatsiz qoldirmaslik, mijozni unutmaslik

va nihoyat,
kayfiyatni
yaxshi
tutishga
harakat
qilish lozim.

Aytganlarimga
amal qilinsa,
kasallanish u yodqa
tursin, hattoki bevaqt
o'lim ham orqaga
chechinishi mumkin.

Ziyouz.uz

O'zbekiston

O'zbekiston diyorum
Sen nomusim, sen orim
Har qadamda qo'llovchi
Suyanchim, madadkorim!

Osmono'par tog'laring
Jamoliga oshiqman
Gulga to'la bog'laring
Aytayotgan qo'shiqman

Sen onamdek mehribon
Qalbim to'la ishq olov
Intilsam quyosh tomon
Ezgulik dilda yalov

Mehringning bulog'idan
Simirdim obi hayot
Ezgulikning bog'idan
Uchdim chiqarib qanot

Otam ko'zida kulgan
Shukronadan shod tanim
Iqboli oydek to'lgan
O'zbekiston Vatanim!



Sabina Zoyirova
Farmatsiya fakulteti,
105-guruh talabasi

Vatan
himoyachilari
kuniga...

Jondan ortiq avvaylab, butun
Yurtni atar hurlik makoni,
Senga Qutlug' bo'lsin ushbu kun
Ona Vatan jasur o'g'loni.

Boshing toshdan irodang metin
Umring qilsin Alloh ziyoda
Sarhadlarda hushyor olmay tin
Sharaf bilan yasha dunyoda.

Himoyangda jonajon Vatan
Shundan ko'ngil xotirjam mudom
Sendek o'g'lonlari bor ekan
Yurt tinchligi bo'lar bardavom.

Oqlishlaydi seni bor Jahon
Asraganing gul-u, bog', bo'ston
Ko'ksi qalqon chinakam mardlar
Vatanisan hur O'zbekiston!



Mohira Saydaliyeva

"Talabalar teatr studiyalari" ko'rik-tanloving -yilgi mavsumiga start berildi

2025

- Har bir oliy gohda yanvar oyi yakuniga qadar OTM talabalar teatr jamoasi shakllantiriladi;

- OTM terma jamoasi tomonidan teatr sahnasida tayyorlangan spektakl namoyish etiladi (bunda teatr zalida talaba-yoshlar tomoshabin sifatida ishtirok etishi shart) va to'liq video tasvirga olinadi.

- Spektakl videosi davomiyligi 80 daqiqadan oshmagan holda, HD formatda 31-mart sanasiga qadar Respublika tashkiliy qo'mitasiga 1-prorektor tomonidan taqdim etiladi (spektakl videosini montaj qilishga ruxsat etiladi);

- Hakamlar hay'ati qaroriga ko'ra eng yaxshi deb topilgan 8 ta jamaa tanloving final bosqichi yo'llanmasiga ega bo'ladi (final odatdagidek offlayn tarzda tashkil etiladi).

Tanlov g'olib bo'lgan jamoalar Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan quyidagi tartibda pul mukofotlari bilan taqdirlanadi:



- 1-o'rinn - 70 million so'm;
- 2-o'rinn - 50 million so'm;
- 3-o'rinn - 30 million so'm.

Nominatsiyalar bo'yicha:

- "Eng faol oliy ta'lif muassasasi" - 15 million so'm;
- "Eng yaxshi erkak roli uchun" - 10 million so'm;
- "Eng yaxshi ayol roli uchun" - 10 million so'm;
- "Jamoat ijodkor talabasi" - 8 million so'm;
- "Eng yaxshi talabalar teatr studiyasi rahbari" - 7 million so'm.

Tanlovda ishtiroketmoqchi bo'lgan talabalar ta'lif muassasasining Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha mas'ullariga murojaat qilishlari mumkin.

Mazkur tanlovda ishtirok etadigan Samarqand davlat tibbiyot universitetining "Abu Ali ibn Sino izdoshlari" talabalar teatr studiyasi jamoasiga omad va zafarlar tilab qolamiz.



Ma'lumki, bu dunyoning rivojlanişida insoniyatning taroqqiy etishida ustozning o'rni beqiyosdir. Inson o'zini anglagan davrdan boshlab ustozlarga suyangan, ulardan ma'naviy kuch olgan.

Respublikamizda oxirgi yillarda oliy ta'lif muassasasi ishlayotgan professor-o'qituvchilarga nisbatan e'tibor kuchayib bormoqda. Shu bilan birga, ushu soyaning yetakchilari bo'lmish ustoz va murabbiylarga ham yuksak ehtirom ko'rsatilmokda.

Kelajagi buyuk davlat uchun komil, har tomonlama yetuk va barkamol, ma'nan va axloqan pok, vatanparvar va insonparvar avlodlarni tarbiyalab yetkazish uchun ulkan jasorat va jur'at kerak. Shunday ulkan jasorat va jur'at egasi, Samarqand davlat tibbiyot universitetida ko'p yillar davomida ishlagan va hozirda qarilik nafaqasi-gashtini surayotgan dotsent

Muratov Ixtiyor Muratovich. Ustoz harbiy xizmatni uzoq Sharqda Slosk Dalniy shahrida o'tagach, 1978-yildan laborantlik lavozimidan 2021-yil dotsentlik lavozimigacha ish faoliyati davomida ko'p yillar yosh avlodga ta'lif tarbiya va barkamol yetuk mutaxassis bo'lib yetishishda o'z hissasini qo'shgan. 2025-yil 14 yanvar kuni Tibbiy Kimyo kafedrasi o'qituvchilari "Vatan himoyachilarini kuni" munosabati bilan ustoz Ixtiyor Muratovich xonardonida bir piyola choy ustida suhabatda bo'lishdi.

- 1-SON DAVOLASH ISHI FAKULTETI**
2-son xirurgik kasalliklar kafedrasi, assistant lavozimiga – 1 ta o'rinn;

3-son akusherlik va ginekologiya kafedrasi, assistant lavozimiga – 1 ta o'rinn.

PEDIATRIYA ISHI FAKULTETI

Nevrologiya kafedrasi, assistant lavozimiga – 1 ta o'rinn;

Oftalmologiya kafedrasi, assistant lavozimiga – 1 ta o'rinn.

TIBBIY PROFILAKTIKA, JAMOAT

SALOMATLIGI VA TIBBIY BIOLOGIYA FAKULTETI
Klinik anatomiysi kafedrasi, dotsent lavozimiga - 1 ta o'rinn;

Gigiyena kafedrasi, assistant lavozimiga - 1 ta o'rinn;

Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlash menejmenti kafedrasi, assistant lavozimiga – 1 ta o'rinn;

Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlash menejmenti kafedrasi, stajyor-assistant lavozimiga – 1 ta o'rinn.

FARMATSIYA FAKULTETI

Biologik kimyo kafedrasi, dotsent lavozimiga – 1 ta o'rinn;

Biologik kimyo kafedrasi, assistant lavozimiga – 1 ta o'rinn;

Farmakologiya kafedrasi, assistant lavozimiga – 1 ta o'rinn.

DIPLOMDAN KEYINGI TA'LIM FAKULTETI

Terapiya, kardiologiya va fuksional diagnostika, kardioxirurgiya kursi bilan kafedrasi, assistant lavozimiga – 1 ta o'rinn;

Xirurgiya, endoskopiya va anesteziologiya-reanimatologiya kafedrasi, stajyor assistant lavozimiga – 1 ta o'rinn.

TIBBIY PROFILAKTIKA, JAMOAT SALOMATLIGI VA TIBBIY BIOLOGIYA FAKULTETI

Odam anatomiysi kafedrasi, assistant lavozimiga - 1 ta o'rinn;

Umumiy gigiyena va ekologiya kafedrasi, assistant lavozimiga - 1 ta o'rinn;

Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlash menejmenti kafedrasi, assistant lavozimiga – 1 ta o'rinn.

STOMATOLOGIYA FAKULTETI

Terapevtik stomatologiya kafedrasi, assistant lavozimiga – 1 ta o'rinn;

DIPLOMDAN KEYINGI TA'LIM FAKULTETI

Nevrologiya kafedrasi, assistant lavozimiga – 1 ta o'rinn;

Nevrologiya kafedrasi, stajyor assistant lavozimiga – 1 ta o'rinn.



Kafedra mudiri lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi ilmiy darajasiga, professor yoki dotsent ilmiy unvoniga, shuningdek falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin.

Dotsent lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi (PhD) ilmiy darajasiga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin. Katta o'qituvchi, assistant yoki stajyor assistant lavozimini egallash uchun tegishli mutaxassislik bo'yicha olyi ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar (magistr, diplomli mutaxassis) qatnashishi mumkin.

Hujjalarning e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi 18-uy.

Tahririyat raisi:
J.A. RIZAYEV

Bosh muharrir:
E.S. TANGIROV

Tahrir hay'ati:

G.U.Lutfullayev,

S.A.Karabayev,

A.A.Axmedov, J.F.Kadirov,

B.E.To'xtarov, F.A.Daminov,

S.E.Mamaradjabov, U.S.Pulatov

N.M.Shavazi, O.A.Xamidov,

D.Sh.Abduraxmanov

SHIFOKOR SO'ZI

Nashr uchun mas'ul:

O. Muratov

Operator va sahifalovchi:

A. Xolboev

Fotomuxbir:

O.Axmedov

Gazeta Samarqand viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 18.01.2007 y. 09-33 raqami bilan ro'yxitga olingan.

INDEKS: 5539

MANZIL: Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi 18-uy.
Tel: (99866) 233-09-76 Faks: (99866) 233-71-75

e-mail: shifokor@samti.uz, sammi@sammi.uz

Gazeta har oyda bir marta to'liq rangli shaklda chop etiladi va bepul tarqatiladi

Gazeta SamDTU bosmaxonasida, ofset usulida chop etiladi.

Nashrga ruxsat berildi: 2025-yil, 29-yanvar. Adadi 200 nusxa. Buyurtma: 126

